

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO`JALIGI
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI
«Suv xo`jaligi iqtisodi» kafedrasи**

**QIShLOQ XO`JALIGI IQTISODIYOTI
*fanidan***

**«QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINING BAHOLARI, ULARNING
TAKOMILLA ShTIRILISHI» mavzusidagi**

MA`RUZASI

Mavzu:

**QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINING BAHOLARI,
ULARNING TAKOMILLAShTIRILISHI**

- 1. Bahoning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati, funktsiyalari
- 2. Qishloq xo`jaligida baholar tizimi, ularning darajasi va dinamikasi
- 3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni takomillashtirish masalalari

- **1. Bahoning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati, funktsiyalari**
- **Bozor iqtisodi erkin pul-tovar munosabatlariga asoslangan.** Bu munosabatlar esa baholar yordamida amalga oshiriladi. Baho tovar qiymatining pulda ifodalanganligini isbotlovchi vosita, ya'ni mexanizmdir. Uning absolyut miqdori bozor iqtisodi sharoitida samarali, cheklangan xarajatlarga asoslanadi, ya'ni ular bahoning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Har qanday xarajatlar ham samarali hisoblanmaydi. Shuning uchun ma'lum bir miqdorgacha bo`lgan, ya'ni maqsadga muvofiq sarflangan xarajatlargina e'tiborga olinadi.